

**ZULFIYA ISROILOVA SHE'RLARIDA KO'CHMA MA'NOLI
SO'ZLARNING QO'LLANILISHI**

Safarova Hamrooy

Guliston davlat pedagogika instituti
ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi I bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7939694>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX-XX asrlarda yashab o'tgan buyuk iste'dod sohibasi Zulfiya Isroilova she'riyati, ijodi va uning poetikasiga, lirikasiga oid bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada Zulfiya Isroilova she'rlarida qo'llangan ko'chma ma'noli so'zlar, misralar qo'llanganligi, uning she'rdagi saviyasi, ma'nosi tahlili o'rganilgan va tadbiq etilgan. Bundan tashqari Zulfiya Isroilovanning o'z fikri va shoira haqida bildirilgan fikrlar ham qo'llanilgan.

Annotation: article contains information about the poetry, creativity, poetics and lyrics of Zulfia Israilova, a great talent who lived in the XIX-XX centuries. In the article, the figurative words used in Zulfiya Israilova's poems, the use of verses, their level in the poem, and the analysis of their meaning are studied and applied. In addition, Zulfia Israilova's own opinion and opinions expressed about the poetess were also used.

Kalit so'zlar: ko'chma ma'no, falsafiy g'oyalar, musavvir, xotira, bahor, fojiaiy taqdir, estetik, syujet, personaj, poeziya, madaniyat.

Key words: figurative meaning, philosophical ideas, artist, memory, spring, tragic fate, aesthetic, plot, character, poetry, culture.

Zulfiya Israilova hayoti, ijodi va she'riyati haqida ma'lumotlar talaygina. Bugungi kunda esa mazkur shoira ijodida, she'rlarida ko'chma ma'noli so'zlar qo'llanganligi anchagina ekanligiga guvoh bo'lamiz. Zulfiya Isroilova hayoti, shu bilan birga uning she'riyati haqida so'z borar ekan, ular haqidagi ma'lumotlar aniq fakt deb qaraladi. Shoiraning she'rlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, vafo va sadoqat timsoli sanalgan shoira she'rlarida teran falsafiy g'oyalar, fojiaiylik hamda realistik qarashlar ufurib turadi. Shuni ta'kidlash joizki, shoira mana shu qarashlari orqali, qobiliyatlari orqali, qalamining o'tkirligi sababli va o'z ijod yo'li orqali o'zbek she'riyatida katta bir maktab vazifasini o'tadi. Ushbu fikrlar hech qanday mubolag'a emas chunki haqiqatan ham Zulfiya Isroilova she'rlarida teran fikrlarni, qalbdagi bor hissiyotni bir-biriga uyg'un qilgan holda qog'ozga tasvirlagan musavvirdir.

Har bir shoir, yozuvchining o'z yo'li, yo'nalishi bo'lgani kabi Zulfiya Isroilovanning ijod yo'lida — xotira, fojiaiy taqdir, sevgi va bahor singari butun



bir hayot mavjud. Ushbu to'rt so'zda shoiraning butun hayoti va ijodi mujassamlashtirilgan. Zulfiya Isroilova she'rlaridagi estetik ta'sirlar ham ayni xotira, fojiaiy taqdir, sevgi va bahor tushunchalari orqali yoritib berilgan. Bundan tashqari, asosiy syujetlik roli ham ayni shu tushunchalarda o'z aksini topgan.

Shoiraning „Xotiram siniqlari " she'rida:

Xayriyat, keldingmi – nahotki kelding,
Pinhona sog'indim, pinhona kutdim.
Yomg'irga bag'rini tutgan sahrodek —
Sening nasimingga qalbimni tutdim.

Yuqorida aytib o'tilgani kabi asosiy syujet bu xotira. Shoirani barchasini xotirlab, undagi voqealarni, jo'shqin hislarini bir-biriga uyg'unlashtirib butun bir personajni yaratdi. She'rdagi asosiy kulminatsion nuqta ham ayni uchinchi misrada tasvirlangan. Garchi ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lsa-da, o'z hissiyatini juda go'zal tarzda qog'ozga tushirgan. „Yomg'irga bag'rini tutgan sahrodek" — misrasidagi ko'chma ma'no shoiraning sog'inchini ifoda etadi. Sahroda yomg'ir yog'maydi, lekin sahro intiq yomg'ir kutadi. Asl tagma'nodagi qahramonlar esa mutlaqo boshqacha. Ya'ni sahro — muallif, yomg'ir esa uning yori — Hamid Olimjondir...

Darhaqiqat, Zulfiya Isroilova she'rlarining saviyasi shoiraning qanchalik mahoratli ekanligi, so'zlar dengizida suzib yuruvchi shoirani ekanligi adabiyot ixlosmandlariga yaqqol ko'rinadi. Zulfiya she'rlaridagi his-tuyg'ular, teran fikrlar, shoiraning so'zga, hayotga bo'lgan sevgisi har qanday kishining ruhiyatini tubdan o'zgartira oladi. Tinglovchini bir soniyada mahzun ham mamnun ham etadigan she'rlari orqali ham Zulfiya o'zbek adabiyotida yorqin yulduz bo'lib porlagan. Uning „Ne baloga etding muftalo " she'ridagi:

Ko'z ochgani qo'ymaydi alam,
Boshim qo'ysam kuydirar bolish.
Yupatolmas kitob va qalam
Misralarim keltirar noli.

Ushbu jumlar orqali shoiraning hissiy-emotsional tarzda kishi ruhiyatiga, ongiga ta'sir o'tkazadi. Ko'chma ma'noni qamrab olgan mazkur she'r orqali o'y-fikrlarini, sevgi-yu, sog'inchini mahorat bilan tasvirlagan. „Boshim qo'ysam kuydirar bolish “ , „Ko'z ochgani qo'ymaydi alam “ misralari ko'chma ma'noni qamrab olgan. Ushbu misralarni o'z ma'nosini tahlil qilsak, bolish ya'ni yostiqlik bosh kuydirmasligi, alam ko'zni ochtirmasdan qolmasligi barchaga ayon. Ammo ko'chma ma'noni ifoda etsak, sog'inch azobi, hijron, xotiralar uni tunlari

qiynayotgani, ichidagi qandaydir alam uni tinch qo'ymayotganligi ushbu she'r tarjimasi ekanligini tushunib olamiz.

Zulfiyaxonim Isroilova „ Men she'rlarimizning bir mavzu atrofida cheklanib qolishini istamayman “ deya ta'kidlar ekan, uning she'rida faqatgina g'am-qayg'u, iztirob emas, balki bahor ham shodon kuylanadi. Mazkur she'rni:

Inson ko'zlarida jon olar bahor
Barcha tomirida uning to'lqini,
O'tmishning behuda oni kabi qor
Beiz, bedard erib ketar uchquni.

Tahlil jarayonida shunga amin bo'lamizki, bahor shoira hayotiga, qalbiga vujudiga go'yoki qon tomiri orqali singgandek. Ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lsa-da, bahor juda go'zal tasvirlangan. Bahor inson ko'zidan jon olishiga, tomirlarda qon bo'lib oqishi bular haqiqiy mahorat bilan tasvirlagan musavvir mahorati, iste'dodidir. She'rning ikkinchi baytiga diqqat qaratamiz:

Inson ko'zlarida jon olar bahor
O'yinqaroq go'dak singari bulut
Ko'k qovog'i uyuk, yorqin bir viqor
Kishilar qalbidan boqar o't bo'lib.

Inson tabiat bilan, tirik olam bilan birga ekanligini kuylayotgan mushoira shoiramiz bahor inson ichki dunyosidan, qalbidan, boshlanib, ko'zlarida aks etishi, kuch olishini kuylagan. Ko'chma ma'noda bo'lsa-da, she'r mazmunini shu darajada yuqoriga olib chiqishi bu haqiqiy iste'doddur. She'rning ikkinchi misrasiga diqqat qilamiz va uning tabiat mo'jizasi sanalmish bulutni go'dak singari o'yinqaroqligini kuylab, metaforik ma'noni yuzaga keltirgan.

Bundan tashqari,she'rdagi to'rtinchi misrada „ Kishilar qalbidan boqar o't bo'lib “ deya kuylar ekan, yana ko'chma ma'noni ifoda etayotgani ma'lum bo'ladi.

Chingiz Aytmatov Zulfiya Isroilova haqida shunday fikr bildirgan: „ Zulfiya hozirgi zamon o'zbek poeziyasining eng maftunkor zarvarag'idir “. Darhaqiqat, Zulfiya Isroilova she'rlarining saviyasi, ma'nosi-yu, mazmuni shoiraning psixologik mahorati borligini ham tasdiq etadi. Inson ruhiyatiga qay darajada ta'sir o'tkaza olishini bilgandek, vujudni qamrab oladigan sog'inch, sevgi, xotira mavzularidagi she'rlari inson kayfiyatini ko'tarishga ham, inson qalbini alangada qoldirishga ham qodirdir. M. Karimov ham: „ Zulfiya, uning ijodi, she'riyati bizning ruhiy olamimizning bir qismidir, milliy madaniyatimizning bir qismidir. “ deya baholagani haqiqat ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Zulfiya „Saylanma“ — „Sharq “ — Toshkent-2006





2. Turkiy adabiyot durdonalari— „ O‘zbekiston “ — Toshkent- 2022
3. Zulfiya haqida zamondoshlari—Darakchi.uz
4. Ehtirom — „ O‘zbekiston“— Toshkent –1995.

